

QUYONLARDA UCHRAYDIGAN KASALLIKLARGA QARSHI KURASHISH PROFILAKTIKASI VA EMLASH

Olim Mardanovich Mansurov, Fyoziddin Baxriddinovich Baxriddinov

Quyunchilik seleksiyasi va genetika markazi

Annotatsiya: Maqolada hozirgi kunda quyunchilikni sanoat asosida rivojlanishi asnosida ko'p sonli quyonlar maxsus kataklarda saqlananib, bu esa ularni bir binoda ko'p sonli quyonlarni parvarishlashni taqazo etadi. Bunday xolatlarida tabiiyki saqlash, oziqlantirish va x.k. kabi rejimlarga bir oz e'tiborsizlik tufayli xatolikka yo'l qo'yilsa turli xildagi kasalliklar kelib chiqishi mumkin. Bu xol ayniqsa yuqumli kasalliklarni tarqalishiga zamin yaratadi. Quyonlarda uchraydigan invazion, infeksiyon virusli kasalliklari patologiyasi hamda davolash usullari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: infeksiyon, virusli, og'iz bo'shlig'i, rinit, stafilokokkoz, pasterellez, bitsillin, biomitsin

Abstract: In the article, nowadays, during the development of rabbit farming on an industrial basis, a large number of rabbits are kept in special cages, which makes it necessary to care for a large number of rabbits in one place. In such cases, of course, storage, feeding, etc. If a mistake is made due to a slight neglect of such regimens, various diseases may appear. This score creates the basis for the spread of infectious diseases. Information on the pathology and treatment methods of infectious viral diseases in rabbits is presented.

Kirish

Sanoat quyunchiligida uchraydigan infeksiyon kasalliklarni asosan binolarda ko'p sonli quyonlar saqlanishi, mikroiklimning buzilishi, oziqlantirishning buzilishi, chetdan olib kelinayotgan quyonlarni organizmida yashirin holda ko'plab kasalliklarni bo'lishi sababli quyonlarda infeksiya kasalligini tarqalishi extimoli oshadi. Bu xol ayniqsa yuqumli kasalliklarni tarqalishiga zamin yaratadi.

Maqolada sanoat asosida boqilayotgan quyonlarda uchraydigan invazion, infeksiyon kasalliklar va ularning patologiyasi hamda davolash ishlari to'g'risida so'z ketadi. Xo'jalikda quyonlarni reja asosida doimiy ravishda emlash ishlari kalendar rejasiga ko'ra o'tkaziladi.

Yuqumli stomatit kasalligi:

a) bu kasallikka chalingan quyonlarni har kuni og'iz bo'shlig'i 2%-li mis kuporosi, yoki spirt bilan paxta tamponi yordamida artiladi;

b) og'iz bo'shlig'iga streptotsid yoki sulfademizin kukuni 0,1-0,2 g-dan yoki penitsillin kukunini quyonlarning yoshiga qarab 0,05-0,5 g-dan sepiladi;

v) 20-30 ming birlikda muskul ichiga penitsillin in'eksiya qilinadi.

Quyonlarni kasallik davrida engil xazm bo'ladigan ozuqalar bilan oziqlantiriladi.

Yuqumli rinit kasalligida rinit kasalligi bilan kasallangan quyonlarni har kuni bir martadan burniga 4-5 tomchidan 1:3 nisbatda suvda eritilgan ekmonovotsilin eritmasidan tomiziladi, 1%-li furatsilin yoki penitsillin 1 ml-dan 15-20 ming birlikda tomiziladi. O'pkasi yallig'langan taqdirda 3-4 kun mobaynida ertalab va kechqurun muskul orasiga 50-80 ming birlikda ekmonovotsilin yoki penitsillin ineksiya qilinadi hamda 0,2-0,3 g-dan sulfademizin ichiriladi. Agarda 15 kun ichida quyonlar tuzalmasa ular so'yiladi.

Stafilokokkoz kasalligida a) kasalikga chalingan quyon bolalari 30-50 ming birlikda bitsillin in'eksiya qilinadi va teridagi yiringli yaralar 5%-li brilliant ko'ki (zelyonka) kukunini spirtidagi eritmasi suriladi yoki 3%-li karbol kislotasi suriladi. b) dermatitda yiringli yaralar tozalanib, yod eritmasi surtiladi va penitsillinli maz surtilib oyoqlari bog'lab qo'yiladi. Yara ko'p va chuqur bo'lsa 4-5 kun mobaynida ertalab va kechqurun penitsillin yoki 2-3 kun mobaynida bir kunda bir marta bitsillin qilinadi, 1 kg tirik vaznga 15-20 ming birlikda bo'lishi kerak; v) quyonlar yallig'lanish oqibatida mastit kasalligi bilan kasallanib qolsa sut bezlari so'rg'ichlari qizarishi yoki bezlarini qotib qolish xavfi tug'iladi. Unda har kuni 4-5 kun mobaynida sut bezi so'rg'ichlariga bor vazelini yoki penitsillinli maz surtiladi. Sut bezlari qattiqlashib qolgan bo'lsa kaliyli yod, kamforali yoki ixtiol mazi surtish kerak. 2-3 kun mobaynida bir kunda bir marta bitsillin 15-20 ming birlikda in'eksiya qilinadi. Yiringli o'choqlar chuqur bo'lsa yoki yorilib ketganda 3-4 kun mobaynida bir kunda bir mahal yiringli o'choqlar atrofiga bitsillin ukol qilinadi yoki pensillin qilinadi.

Teri osti absesslarida ularni yormasdan kapsulasi bilan birga olib tashlash kerak. Agar buni ilojisi bo'lmasa kapsulani yorib qon oqishi to'xtagandan so'ng yiringi olib tashlanadi. Yara o'rni 0,3-0,5%-li rivanol eritmasi bilan yuvilib yaraga dezinfeksiyalovchi dori kukunlari (poroshok) sepib qo'yiladi.

Pasterellez kasalligida – xo'jalikdagi barcha quyonlarga 20 mg/kg terramitsin bir kunda bir marta yoki 8-10 soat oralig'ida bir kunda ikki marta biomitsin ukol qilinadi, 24 soat ichida quyonxonalar 1-2%-li formalin eritmasi bilan dezinfeksiya qilinadi, inventarlar esa qaynatilib zararsizlantiriladi, keyin 7 kun oralig'ida ikki marotaba 45 kunlik yoshdan yuqori bo'lgan sog' quyonlar emlanadi, bunda pasterellez kasalligiga qarshi ekstrakt –formol vaksina ishlatiladi. 45 kunlik yoshdan pastdagi quyon bolalariga qishloq xo'jalik hayvonlarining polivalentli gemmoragik septitsimiyaga qarshi zardobi teri ostiga yuboriladi, bu zardob har 5-7 kun oralig'ida kasallik tuzalgunga qadar davom ettiriladi, 45 kunlik yoshga etgandan so'ng ular emlanadi. Har bitta quyonga alohida toza igna ishlatiladi.

Paratif kasalligida – kasal quyonlarga 7 kun mobaynida ertalab va kechqurun ular bilan birga turgan quyonlarga esa bir kunda bir marta oziqa bilan birga 1 kg tirik vaznga 30 mg miqdorda furazolidon berish kerak. 7 kun oralig'ida klinik jixatdan sog' bo'lgan quyonlarni 2 marta paratif kasalligiga qarshi polivalentli vaksina bilan emlanadi.



Koksidioz kasalligida – bu kasallikga chalingan quyonlarni engil hazmlanuvchi oziqalar bilan oziqlantirib, qafaslarni doimo toza xolda saqlanishini ta'minlash kerak.

Yosh quyonlar quyidagicha davolanadi: a) birinchi kuni namlangan ozuqaga 0,2 g-dan, qolgan 4 kun mobaynida 1 kg tirik vaznga 0,1 g-dan sulfodimetoksin beriladi. Davolash kursi 5 kundan so'ng takrorlanadi.

b) 5 kun mobaynida har kuni 0,3-0,4 g suv yoki sut bilan norsulfazol va 0,1 g 1 kg tirik vaznga namlangan ozuqa bilan ftalazol beriladi. Davolash kursi 5 kundan so'ng takrorlanadi.

v) Ertalab suvni o'rniga 50 ml-dan har bir quyonga 0,01%-li yod eritmasi 10 kun mobaynida har kuni beriladi, 5 kun dam berilgandan so'ng, 70–100 ml-dan 0,02%-li yod eritmasi 15 kun mobaynida har kuni beriladi. Koksidioz kasalligi bilan kasallangan quyonlar o'limi ko'paygan taqdirda ona quyonlarni 25 kunlik bo'g'ozlik davridan 5 kunlik laktatsiya davrigacha ertalab har biriga 100 ml-dan 0,01%-li yod eritmasi, 5 kunlik tanaffusdan so'ng 15 kun mobaynida 200 ml-dan 0,02%-li yod eritmasi beriladi, uni quyon bolalari ham ichishlari mumkin.

0,01%-li yod eritmasini tayyorlash uchun 1 l suvga 1 ml (20 tomchi) 10%-li yod eritmasidan yoki 2 ml 5%-li yod eritmasidan quyish kerak; 0,02%-li eritmani tayyorlash uchun yuqoridagi dozalar 2 barobar oshiriladi.

Yod eritmasini har safar berishdan oldin tayyorlanadi va uni metal idishlarda berish mumkin emas.

Qo'tir va kal kasalliklarida a) yangi tayyorlangan 25%-li oxak eritmasi bilan zararlangan joylar va uning atrofi artiladi, keyin darxol superfosfat eritmasi bilan artiladi, 1-2 kundan so'ng tuzlanmagan eritilgan mol yog'i surtiladi;

b) Quyida qayd qilinadigan dorilardan ham foydalanish mumkin: 10%-li yod eritmasi, salitsil kislotasining spirtidagi 10%-li eritmasi yoki lizol eritmasi, 0,5%-li 40°S iliqlikda baliq yog'idagi eritmasi, 1%-li trixotsetinni sariq vazelindagi (texnik) eritmasi, formalin – kerosinli (2-3 qismda formalin, 10 qismdan kerosin) emulsiyasi (aralashmasi) ishlatiladi.

Qichima kasalligi – quyonlarni zararlangan joylarni vazelindagi yoki balchiq yog'ida eritilgan skipidar, geksoxloran yoki DDT eritmasi bilan yumshatib, ustki qismi qirib tashlanadi, xuddi shu aralashmalar bilan qirib tashlangan joy yana dorilanadi, 20-30 minut vaqt o'tgandan so'ng quyonxonalar dezinfeksiya qilingan boshqa qafaslarga ko'chirib o'tkaziladi, kasal quyon turgan joyi 5%-li kreolin, 3%-li lizol yoki 1-2%-li formalin eritmalarining biri bilan dezinfeksiya qilinadi, 5-7 kundan so'ng qayta dezinfeksiya qilinadi.

Oshqozon-ichak kasalliklari – oshqozon – ichak kasalliklari asosan quyonlarni sifatsiz ozuqalar bilan oziqlantirganda, son va sifat jixatdan to'yintirilmagan ozuqalar bilan boqilganda yoki oziqlantirish rejimi buzilgan vaqtlarda kelib chiqadi.

Bu kasalliklarni kelib chiqishini aniqlash uchun avvalo ozuqani sifatini, oziqlantirish rejimini hamda oziqlantirishdagi kamchiliklarni aniqlash lozim bo'ladi.

Oshqozon ichak kasalliklarini davolash – barcha kasal quyonlarga 12 soat davomida ovqat berilmay och qoldiriladi, so'ng 1,5-2 marotaba oziqlantirish ratsioni kamaytiriladi, quyonlar ratsioniga shirali ozuqalar sabzi, turp, karam, ozuqabop lavlagi beriladi, pichan va konsentrat oziqalar berilmaydi.

Oshqozon – ichak sistemasi shilliq paradasi nordon yallig'lanish kasalligi – bu kasalik suyuq, qo'ng'ir-ko'kimtir rangdagi shilliq yoki pufakcha shaklidagi axlatni kelishi bilan xarakterlanadi. Kasalangan quyonlarga bir kunda 2 maxal 0,2-0,3 g-dan sintomitsin ichiriladi, tuzalgunga qadar bu takrorlanadi.

Sintomitsin quloq venasidan 2-3 ml toza 5%-li osh tuzi eritmasi yuboriladi, 3-4 soat o'tgandan so'ng, 3-5 ml miqdorda 5%-li sut (molochnyy) kislotasi ichiriladi. Quyonning qorni asta sekin 5%-li tuz eritmasi bilan massaj qilinadi, quyonni qafasdan chiqarib xarakat qilishga majbur qilinadi (yugurishi shart emas).

Oshqozon – ichak sistemasi shilliq paradalarini ishqoriy yallig'lanish kasalligi bu kasallik bilan kasallangan quyonlarda suyuq, qora-qo'ng'ir tUSDagi, yiringli qo'lansa xidli, axlat kelishi bilan xarakterlanadi. Bunda bir kunda 2 marta 0,2-0,3 g sintomitsin ichiriladi va 1%-li tanin eritmasi yoki 1-2 choy qoshiqda eman po'stlog'idan tayyorlangan damlama ichiriladi, suv o'rniga xashakdan tayyorlangan qaynatma beriladi.

Yuqori nafas yo'llari shamollashi natijasida, oshqozon-ichak sistemasi shilliq pardalarini yallig'lanish kasalligi kasalikka chalingan quyonlarda sariq-qo'ng'ir tUSDagi axlatni kelishi, burnidan suyuqlik oqishi bilan xarakterlanadi davolashda 0,1-0,15 g-dan bir kunda 2 maxal biomitsin ichiriladi.

Ichaklarni tiqilib qolish kasalligi – kasalikka chalingan quyonlarda axlat kelmasligi, qorin bo'shlig'i paypaslaganda yo'g'on ichaklar qattiq to'lib qolganligi bilan xarakterlanadi. Bunday kasallikka chalingan quyonlarni ich suradigan dorilar: glauber tuzi – yosh quyonlarga 3-4 g-dan, kattalariga 5-6 g-dan ichiriladi yoki bo'lmasa 1-1,5 choy qoshiqda kastoro moyi ichiriladi, 2-3 soat o'tgandan so'ng suli qaynatmasi ichiriladi, iliq sovunli suv bilan klizma qilinadi.

Yuqorida keltirilgan davolash tadbirlari yuqori mahsuldorlikga va naslli ahamiyatga ega bo'lgan shuningdek, emizikli quyonlar va erkak nasili quyonlarda qo'llaniladi. Naslchilik maqomiga ega bo'lmagan fermalarda quyonlarni so'yib veterinariya vrachi ko'rsatmasi bilan go'shtga so'yiladi.

Xulosa

Quyonchilik bilan shug'ullanayotgan fermer xo'jaliklari, tadbirkorlar va aholi xonadonlarida amalga oshirilishi zarur bo'lgan kasalliklarni oldini olishga mo'ljallangan chora-tadbirlarni rejali bajarilishini ta'minlaydigan chora-tadbirlar jadvalini ularni e'tiboriga xavola etamiz.

Қуён касалликларини олдини олишга қаратилган чора-тадбирлар режаси

Т/р	Еши (кун)	Ўтказиладиган тадбир	Препаратлар номи	Ишлатилиши
1	30	Кокцидиозга қарши дори ичириш	Байкокс, Соликокс, Стоп-кокцид, Торукокс, Тоукокс, Толтракокс, Дитрим, Сүльфадиметоксин	Амалдаги қўлланмага асосан
2	37	Дегельминтизация	Шустрик, Дирофен-пасба (суспензия), Промектин, Ивермектин, Пирантел	Амалдаги қўлланмага асосан
3	45	Қуёнларнинг вирусли гемморогик касаллиги (ҚВГК)	Песторин, Песторин мормикс, Раббивак, Миксоматозва ҚВГК қарши комплекс вакцина, Покров-Био, Лапимум Микс	Амалдаги қўлланмага асосан
	55	Миксоматоз		
4	65	Витаминлаш	Продактив Форте, Поливитаминоацидос УВ, Тетрогидровит, Гидро Рекс Витал, Биотан-32	Амалдаги қўлланмага асосан
5	75-120	Миксоматоз ва ҚВГК қарши насли қуёнларни эмлаш (ревакцинация)	Песторин, Песторин мормикс, Раббивак, Миксоматоз ва ҚВГК қарши комплекс вакцина, Покров-Био, Лапимум макс	Амалдаги қўлланмага асосан
6	120	Бўрдокига боқилган қуёнлар сўйилади, кокцидозга қарши дорилар насли она қуёнларга ичирилади ва улар уруғлантирилади	Байк, Соликокс, Стоп-кокцид, Торукокс, Толукокс, Толтракокс	Амалдаги қўлланмага асосан
7	Доимий равишда	Қорин шишиши ва кокцидиозни олдини олиш учун қуёнларга нордон сув бериш	Табиий олма сиркаси 40 %-ли, сут кислотаси	2мл 1литр сувга аралаштирилади

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alikaev V.A. va boshqalar. "Vnutrennye nezaraznye bolezni selskoxozyaystvennykhivotnykh", "Kolos", Moskva-1972 g.
2. Sosova R.F. va boshqalar. "Obshchaya epizootologiya", "Kolos", Moskva-1974 g.
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Veterinariya to'g'risida"gi "UNLIMITED PRINT" MCHJ nashriyoti. Toshkent-2018 yil.
4. Xolmatov A.X., R.I. Ruziev R.I va boshqalar "Quyonlarni boqish, parvarishlash, ko'paytirish va davolash" bo'yicha o'quv qo'llanma. Toshkent-2019 yil.
5. Ruziev R.I. va boshqalar "Yosh quyonboqarlar uchun uslubiy qo'llanma" Toshkent-2015 yil.